

O‘ZBEKISTON MEDIA MAYDONIDA SPORT SAYTLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Boborajabov Ergash

O‘zDJTU mustaqil tadqiqotchi-izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada internet tarmog‘idagi sport saytlari xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, sport saytlari faoliyatini yanada kengaytirish, saytning uzluksiz reformasini amalga oshirish yutuq va kamchiliklari haqida tahlillar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *Internet, sport saytlari, sport jurnalisti, reklama, milliy sport, internet jurnalistikasi.*

Abstract. The article talks about sports sites on the Internet. Also, the analysis of the achievements and shortcomings of the further expansion of the activity of sports sites, the implementation of continuous reform of the site is presented.

Key words: *Internet, sports sites, sports journalist, advertising, national sports, internet journalism.*

Аннотация. В статье рассказывается о спортивных сайтах в Интернете. Также представлен анализ достижений и недостатков дальнейшего расширения деятельности спортивных площадок, осуществления непрерывного реформирования площадки.

Ключевые слова: *Интернет, спортивные сайты, спортивный журналист, реклама, национальные виды спорта, интернет-журналистика.*

Jahon jurnalistikasining eng yosh va navqiron yo‘nalishi bo‘lgan Internet jurnalistikasi bugun paydo bo‘lganiga chorak asr bo‘lib ulgurmay bir necha yuz yillarga tatiydigan taassurotlar paydo qilmoqda. Internet nafaqat jurnalistika uchun, balki, jamiyatning barcha jabhalari uchun ham bitmas-tuganmas imkoniyatlar manbayiga aylanib ulgurdi. Mazkur platforma davlat uchun eng tezkor hujjatlar aylanmasidan tortib, byurokrtiyaga chek qo‘ygan instrument vazifasini o‘tayotgan bo‘lsa, tadbirkorlar uchun eng katta va xaridorgir “rasta” vazifasini bajarmoqda; shifokorlar uchun masofadan turib eng murakkab operatsiyalarni bajarish imkoniyatini bergan “dastgoh” bo‘lsa, jurnalistlar uchun eng katta axborot makoniga aylangan megapolis vazifasini o‘tamoqda.

Dunyo globallashuv jarayonida ekan, har bir sohaning o‘z vektorlari bo‘yicha kengayishini, takomillashishini, ixtisoslashishini va yana yangi yo‘nalishlarga adaptatsiya bo‘lishini taqozo etadi. Jumladan, sport jurnalistikasining yangi formati bo‘lgan veb-saytlarning axborot bozoriga kirib kelishi mazkur sohaning murakkab jihatlarida ixtisoslashuviga zamin yaratdi. Jamiyatda ro‘y berayotgan jarayonlar dinamikasidan qat’i nazar, sport jurnalistikasi sohasidagi ixtisoslik mualliflaridan



nafaqat professional sport bilimlariga, jumladan, nozik nuyanslarga ega bo'lishni, balki harakatchanlikni, katta hajmdagi raqamli ma'lumotlar bilan ishlash qobiliyatini ham talab qiladi. Shu bilan birga, publitsistning lingvistik va stilistik mahorati ham katta rol o'ynaydi. Buning natijasida jurnalist nomga ega bo'ladi va sport ishqibozlarining xushmuomala va talabchan auditoriyasini ifodalovchi o'zining doimiy o'quvchilari doirasini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, “dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas”. Mazkur ibora paydo bo'lganidan buyon ming yillar o'tdi. Bu – butun koinot, tabiat va bashariyat doimiy o'zgarishda, yangilanishda, deganidir. Davrlar o'taveradi, zamonlar almashaveradi. Bu yorug' olamga kelgan har bir odamzod avlodi turli o'zgarish va yangilanishlar sari boraveradi [Мирзиёев, 2022:4]. So'nggi yillarda mamlakatimizning barcha sohalarida bo'lganidek, ommaviy axborot vositalarida ham tub o'zgarishlar, yangilanishlar, evrilishlar sodir bo'ldi. Ishlash tizimi mazmun va shakl nuqtayi nazaridan o'zgardi, uning yangi formatlari shakllandi. Ularda beriladigan materiallar mazmun-mohiyati va mundarijasi yangicha uslublarda namoyon bo'la boshladi.

Ayniqsa, global tarmoq bo'lgan internet jurnalistikasi zamon va makon tushunchalaridan o'zib ketdi. Bu borada millionlab muxlis va ishqibozlarga ega soha sport jurnalistikasi har qachongidan-da ko'proq muvaffaqiyat qozondi. Aynan mazkur sohada yurtimizda erishilayotgan yutuqlar, mavjud muammolar, istiqboldagi maqsadlarni o'rganuvchi “O'zbekistonda sport saytlari: paydo bo'lishi, faoliyat yuritishi va rivojlanish tendensiyalari” mavzusidagi tadqiqot ishi birinchi marta tizimli asosda tahlilga tortilishi hisoblanadi.

“Sport jurnalistikasining hozirgi holati biz bilgan yigirma-yigirma besh yil avval mualliflar asosan musobaqalar haqidagi reportajlar va sportchilar haqidagi xabarlar bilan cheklanib qolganidan ko'p jihatdan farq qiladi”, deb yozadi taniqli sport jurnalisti A.Galinskiy. O'quvchilar orasida onlayn sport ommaviy axborot vositalarining mashhurlikiga qaramay, onlayn sport jurnalistikasining ko'pgina nazariy jihatlarini hali ham to'liq tushunilmagan. Sport televideniyesi yoki sport matbuoti tarixiga bag'ishlangan asarlar mavjud, O'zbekiston Internet-mediasini rivojlantirish bo'yicha ishlar mavjud, ammo ilmiy hamjamiyat hozirgacha O'zbekistondagi sport saytlari asosida rivojlanib borayotgan internet jurnalistikasining hozirgi holatini yoritib beradigan to'liq tadqiqotni taqdim etmadi.

Mazkur maqolada sport saytlari rivojlanish istiqbollari va O'zbekiston media bozorining hozirgi holatini hisobga olgan holda soha saytlarini, internet portallarini tasniflashga harakat qilingan. Ish onlayn medianing muhim tarkibiy qismlarini har tomonlama o'rganishga qaratilgan: auditoriya, ijtimoiy tarmoqlar, davlat va nodavlat sport saytlari va ularning roli, uslubi, mualliflari, vizualizatsiyasi, interaktivligi va bloglari, reklama, kontent-tematik o'ziga xosliklari ochib berilgan.

Sport jurnalistikasi va sport saytlarining rivojlanish tendensiyalari bo'yicha bir guruh olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan [2] [3] [4]. Jahon jurnalistikasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan sport jurnalistikasini tahlil

etish, xususan uning rivojlanish tendensiyalari va muammolari bo'yicha nazariy va amaliy o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Hartford universiteti (AQSH), Hartford universiteti (Buyuk Britaniya), Leeds Beckett University (Buyuk Britaniya), University of Galway (Irlandiya), National University of Singapore (Singapur), University of Hong Kong (Xitoy), Hebrew University of Jerusalem (Isroil), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti – MGU (Rossiya), O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti (O'zbekiston) O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, (O'zbekiston), O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasida K.Alekseyev [Алексеев, 2013] [Алексеев, 2021], E.Voytik [Войтик, 2010], D.Desyuk, S.Ilchenko [Ильченко, 2018], O.Shmidt o'z asarlarini sport televideniyesi, radiosi va matbuoti tarixi va rivojlanishiga bag'ishlagan. Internet jurnalistika muammolari haqida A.Amzin, S.Balmayeva, E.Vartanova, I.Zasurskiy, M.Lukinalar yozgan. Biroq, onlayn sport jurnalistikasining media makonida hukmronligi va uning talabi va ommabopligiga qaramay, bu hodisa bo'yicha hali to'liq va ko'lamli tadqiqotlar mavjud emas. Ushbu muammo haqida tadqiqotchilar E.Vartanova, L.Kruglova, A.Zamkov [Амзин, 2020], [Болмаева, 2010] [Замков, 2017], shuningdek, ayrim jurnalistik amaliyotchilar qisman yozganlar, ammo bugungi kunda sport saytlarining tuzilishini o'zgartiruvchi tegishli texnologik va auditoriya siljishlarining to'liq tavsifi hali mavjud emas. Media-industriya, raqobatbardosh ustunliklarni, funksional salohiyatni va yetakchi sport onlayn media auditoriyasi bilan o'zaro munosabatlarning eng samarali shakllarini aniqlashda mazkur tadqiqot ishimiz dolzarb hisoblanadi.

“2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni [12] sohaga doir ishlarning rivojlanishini yanada tezlashtirdi. Jumladan, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi sonini 2026 yilda 33 foizga chiqarish, respublika yoshlari o'rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish, O'zbekistonda sportning ommaviyligini oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish [13] bu kabi harakatlarni internetdagi sport saytlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ommalashtirish vazifalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, mamlakat yoshlarini jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda amalga oshirish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish [14] kabi dolzarb vazifalar davlat siyosati darajasida belgilab olindi. Bu kabi qamrovi keng va mas'uliyati yuksak vazifalar har

bir millat va xalqni ma'nan sog'lom, aqlan yetuk bo'lib rivojlanishida ulkan platforma vazifasini o'taydi.

Respublikaning taniqli olim va mutaxassislari X.Do'stmuhammad, P.Allamberganova, Yu.Artiqova, A.Karimov [Каримов, 2012] tadqiqotlarida televideniye sohasiga oid turli muammolar tahlilga tortilgan. “O'zbekiston matbuoti”, “Ijtimoiy fikr” jurnallarida, “O'zbekiston adabiyoti va san'ati”, “Hurriyat” va boshqa matbuot nashrlarida mavzu atrofida kichik maqolalar, taqrizlar uchraydi, xolos. N.A.Abduazizova, M.Xudoyqulov, F.A.Mo'minov, K.T.Irnazarov, F.I.Mo'minova, X.Do'stmuhammad, B.A.Do'stqorayev, Sh.Qudratxo'jayev, R.Muhammadiyev, S.Umirov, K.Ismoilova, Yu.Hamdamiyev, Ya.Mamatova, M.Mirsoatova, O.Toshboyev va boshqalarning tadqiqotlari, kitoblari, maqolalarida ham chiqishlarga oid ayrim fikr-mulohazalar bildirilgan. Bevosita sport jurnalistikasi bo'yicha rus olimlari S.Mixaylov, A.Gost [Михайлов, 2012], mamlakatimizdan A.Imomxo'jayev [Имомхўжаев, 2006] lar tomonidan sport jurnalistikasiga oid ayrim yo'nalishlar tadqiq etilgan bo'lsa-da, sport saytlari faoliyatining yoritilishi maxsus o'rganilmagan. Mazkur mavzu atrofida tibbiy va ijtimoiy nuqtai nazardan ilmiy anjumanlar doirasida chiqishlar, bakalavrlik va magistrlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Biroq, bu sport jurnalistikasi sohasidagi, sport saytlari rivojlanishining zamonaviy tendensiyalaridagi ilmiy-nazariy bo'shliqni to'ldirish uchun yetarli emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2022. 4-бет.
2. <https://www.hartford.edu>
3. <https://www.hud.ac.uk>
4. <https://www.leedsbeckett.ac.uk>
5. Алексеев К.А. Спортивная журналистика: учебник для магистров / К.А. Алексеев, С.Н. Ильченко. – М.: Издательство Юрайт, 2013.
6. Алексеев К.А. Новейшая история отечественной журналистики Учебное пособие / — Москва; Берлин: Директ-Медиа, 2021. — 400 с.,
7. Войтик Е.А. Спортивная медиакоммуникация в России в начале XXI в. — Томск: Издательский Дом ТГУ, 2013., Десюк Д.В. Языковая специфика спортивного телетекста / Д. В. Десюк // Знание. Понимание. Умение. - 2010. - Вып. 4. - С. 187-190.
8. Ильченко С.Н. Основы журналистской деятельности Учебник и практикум для академического бакалавриата / С. Н. Ильченко. — М.: Издательство Юрайт, 2018. — 311 с. — (Серия: Бакалавр. Академический курс).
9. Амзин А.А. Интернет-журналистика. Как писать хорошие тексты, привлекать аудиторию и зарабатывать на этом / Москва: Издательства АСТ, 2020. – 400 с.

10. Болмаева С.М. Медиаконвергенция и мультимедийная журналистика [Текст] : [материалы к обучающим семинарам] / - Екатеринбург: 2010 (Екатеринбург: Типография "Аграф"). – 146.
11. Замков А.В., Крашенинникова М.А., Лукина М.М., Цынарёва Н.А. Роботизированная журналистика: от научного дискурса к журналистскому образованию // Медиаскоп. 2017. Вып. 2.
12. “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони 28.01.2022 йилдаги 60-сонли ПФ.
13. <https://lex.uz/docs/5841063#5844198> 29.11.2022й. “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони 28.01.2022 йилдаги 60-сонли ПФ.
14. 14. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси.
15. Каримов А. И. Аудиовизуал журналистика (тележурналистика), - Т.: ЎзДЖТУ, 2012.
16. Михайлов С.А., Мост А.Г. “Спортивная журналистика”, М.: Аспект-пресс, 2002.
17. Имомхўжаев А. И. Футбол – кувончим, дардим, фахрим, Т., “Шарқ” НМАК, 1996.